Matematika fanini rivojlantirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar

Joriy yil 8-iyul kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4709-sonli qaroriga bag’ishlangan brifing o’tkazildi.

Brifingda qarorda belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirilgan ishlar haqida qisqacha ma’lumot berib o’tildi. Jumladan, Respublikamizning har bir tumanida matematika fanini chuqurlashtirib o’qitishga

ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish bo’yicha manzilli dastur ishlab chiqilayotganligi, Matematika instituti tarkibida 5 ta shtat birligidan iborat Matematika ta’limi bo’yicha o’quv-uslubiy materiallarni muvofiqlashtirish laboratoriyasi hamda Yosh matematik va yosh olimlar masalalari bo’yicha direktor o’rinbosari lavozimi tashkil etilganligi, shuningdek, Matematika institut huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo’lmagan Matematika fani va ta’limini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi faoliyati yo’lga qo’yilganligi, Qoraqalpog’iston Respublikasida, Xorazm, Buxoro, Samarqand va Namangan viloyatlarida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining hududiy bo’linmalari tashkil etilganligi haqida gapirib o’tildi.

Bundan tashqari, yil davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar haqida ham ma’lumot berildi.